yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega bo‘lib, artrit kabi kasalliklarda foydali bo‘lishi mumkin. Qizil yong‘oq ekstrakti og‘iz bo‘shlig‘idagi zararli bakteriyalarni kamaytirib, tish va qizilo‘ngach kasalliklarining oldini olishga yordam beradi. C vitamini va boshqa antioksidantlar immunitet tizimini kuchaytirib, infeksiyalarga qarshi kurashishga yordam beradi. Qizil yong‘oq ekstrakti ovqat hazm qilish tizimini yaxshilaydi va ichak mikroflorasini muvozanatda saqlaydi. Qizil yong‘oq ekstrakti turli bakteriyalar va qo‘ziqorinlarga qarshi samarali hisoblanadi.

Qizil yong‘oq ekstrakti odatda xavfsiz hisoblanadi, ammo ba‘zi odamlar uchun yon ta’sirlar (masalan, oshqozon buzilishi) yuzaga kelishi mumkin. Qon quyqalarini kamaytiradigan dorilarni qabul qilayotgan bemorlar qizil yong‘oq ekstraktini iste’mol qilishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishi kerak.

Qora zira (*Nigella sativa*), shuningdek, “kalindji” yoki “chornushka” nomi bilan ham tanilgan, qadim zamonlardan beri tibbiyotda keng qo‘llaniladigan o‘simlikdir. Uning urug‘lari va ekstraktlari turli xil dorivor xususiyatlarga ega.

Timokinon (*Thymoquinone*) Qora zira ekstraktining asosiy faol moddasi hisoblanadi. Kuchli antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va antikanser xususiyatlarga ega. O‘simlikning asosiy dorivor ta’sirini ko‘rsatadi. Nigellin - Alkaloid turi bo‘lib, nerv tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Yengil spazmolitik ta’sirga ega. Nigellidin - Yana bir alkaloid bo‘lib, immunitetni kuchaytirishda rol o‘ynaydi. Efir moylari - Qora zira urug‘larida 0,5-1,5% miqdorida efir moylari mavjud. Ular orasida p-tsimen, α -pinen, limonen va boshqa terpenlar mavjud. Yog‘ kislotalari: Linoleik kislota (ω -6), oleik kislota va boshqa yog‘ kislotalari mavjud. Bu kislotalar yurak-qon tomir tizimi uchun foydali. Flavonoidlar: Antioksidant xususiyatga ega bo‘lgan birikmalar. Hujayra shikastlanishining oldini olishda yordam beradi. A, B, C vitaminlari, kalsiy, temir, kaliy va magniy kabi minerallar mavjud.

Timokinonning kuchli yallig‘lanishga qarshi xususiyati tufayli artrit, astma va boshqa yallig‘lanish kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Erkin radikallarni neytrallaydi, bu esa hujayra shikastlanishining oldini oladi va qarish jarayonini sekinlashtiradi. Qora zira immunitet tizimini faollashtirib, infeksiyalarga qarshi

kurashishga yordam beradi. Bakteriyalar, viruslar va qo'ziqorinlarga qarshi samarali. Masalan, *Staphylococcus aureus* kabi bakteriyalarga qarshi kurashda qo'llaniladi. Qon bosimini pasaytiradi, qon tomirlarini kengaytiradi va xolesterin darajasini kamaytiradi. Timokinonning o'sma hujayralarini inhibe qilish xususiyati bor. Ko'krak, o'pka va ichak saratonini davolashda potentsial imkoniyatlarga ega. Qon shakarini tartibga solishda yordam beradi. Insulin sezuvchanligini oshiradi. Astma, bronxit va boshqa nafas yo'llari kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Hazm qilishni yaxshilaydi, gastrit va yara kasalliklarini davolashda yordam beradi. Teri kasalliklari (ekzema, psoriaz) va yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Qora zira ko'p hollarda xavfsiz hisoblanadi, lekin ortiqcha dozalarda yon ta'sirlar (masalan, oshqozon buzilishi) keltirib chiqarishi mumkin. Homilador ayollar va bolalarda qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Dorivor o'simliklarning ko'pchiligi kuchli antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, ular erkin radikallarni neytrallash orqali hujayra shikastlanishining oldini oladi. Masalan, *Cichorium intybus* (Kasni) ekstrakti kuchli antioksidant faollik ko'rsatishi va oksidlovchi stressga qarshi samarali ekanligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan [22].

Biologik xilma-xillikni va fitoxilma-xillikni o'rganish va saqlash hozirgi zamonning eng muhim muammolaridan biridir. Har qanday floraning muhim tarkibiy qismi bu odamlar tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinadigan o'simliklar guruhidir. Bular dorivor, oziq-ovqat, asal olinuvchi o'simliklari, manzarali o'simliklarni misol qilib keltirish mumkun.

So'nggi o'n yilliklarda dorivor o'simliklardan foydalanishning dolzarbligi sezilarli darajada oshdi. Ko'plab dorivor o'simliklar efir moylari va oziq-ovqat qo'shimchalarining manbalari hisoblanadi va oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. So'nggi paytlarda mintaqaviy floristik, filogenetik, etnomedik, fitokimyoviy, fitotoksikologik, farmakologik va resurs tadqiqotlari natijalarini umumlashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda [4].

Hozirgi vaqtda yangi dori vositalarini ishlab chiqarishdagi yutuqlar nafaqat yangi kimyoviy birikmalar sintezi bilan, balki ko'p jihatdan mavjud dorilarning xususiyatlari yaxshilanishi, jumladan nishon-organga maqsadli yetkazib beriladigan yangi dori shakllarini yaratish bilan bog'liq. So'nggi yillarda Glitserzinning (GK) rak hujayralarida apoptozni chaqirishi, kanserogenezni ingibirlashi aniqlangan. GKning yana bir muhim xususiyatlaridan biri boshqa dori vositalarining biologik ta'sirini kuchaytirishi hisoblanadi. GK ham o'z navbatida bir qancha biologik faolliklarga ega, jumladan, GK shamollashga, viruslarga, turli yaralarga qarshi va jigar himoyalovchi xususiyatlarga ega ekanligi adabiyotlardan ma'lum. GKning 3-gemisuksinil hosilasi karbenoksolon (KBX) oshqozon yarasini davolashda muhim vositalardan biri hisoblanadi [44].

Ko'plab dorivor o'simliklar yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatishi bilan mashhur. Chicory (*Cichorium intybus*) ildizi ekstrakti NF-kB yo'lining ingibitori sifatida ishlaydi va yallig'lanish markerlari ishlab chiqarilishini kamaytiradi [75]. Ushbu mexanizm orqali dorivor o'simliklarning farmakologik ahamiyati ortadi.

Ba'zi dorivor o'simliklarning ekstraktlari saraton hujayralari o'sishini bostirish xususiyatiga ega. Masalan, *Cichorium intybus* dan ajratilgan seskviterpen laktonlar hujayra apoptotik mexanizmlarini faollashtirishi aniqlangan[43]. Bu esa ularning saratonga qarshi dorilar tarkibida ishlatilish ehtimolini oshiradi.

Insonlar bir necha ming yillar mobaynida tabiatdagi o'simlik va hayvon mahsulotlaridan tayyorlangan shifobaxsh vositalardan oqilona foydalanish uslublari bilan o'zlari va boshqalarni salomatligini saqlab kelganlar[17]. Dorivor o'simliklar tabiiy dorivor resurslar ichida xalq tabobati, zamonaviy tibbiyot uchun yana biologik faol qo'shilmalar (BFQ), zamonaviy preparatlar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida asosiy biologik resurs hisoblanadi (Handa.S.S, ets, 2008) . Dorivor o'simliklar asosida tabiiy biologik faol moddalardan tayyorlangan shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalarini ilmfan yutuqlariga asoslangan holda yangi turlarini ixtiro qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [18].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022 yil 20 mayida “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida” PF-139 farmoni e‘lon qilindi. Ushbu farmonning ijrosi axolini tabiiy bezazar va shifobaxsh vositalar bilan ta‘minlashga olib boradi. Mutaxassislarning e‘tirof qilishicha, hozirgi kunlarda inson sog‘ligiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillar orasida ekologiya­ning ulushi 45-50% ni tashkil etadi [54]. Ma‘lumki, hatto sog‘lom inson organizmida ham, turli biologik va ijtimoiy faktorlar sababli immun tizim faoliyatining susayib ketishi va buning oqibatida, kishi tez shamollash(yallig‘linish), infeksi­on kasalliklarga osongina chalinishi kuzatiladi. Ayniqsa, sovuq qish faslida moddalar almashinuvining sekinlashishi natijasida va ozuqa moddalarning organizmga yetarli miqdorda tushmasligi sababidan immunitet tizimi zaiflashadi. Immunologik tizim juda noyob, murakkab jarayonlarni mukammal amalga oshiradigan tizim bo‘lib, uning asosiy vazifasi organizmga turli yo‘llar bilan kirib olgan mikro­b, virus va soda hayvon hujayralarini aniqlab, ularni organizmdan tashqariga chiqarib yuborishdan iborat. Immunologik tizimning yana bir muhim vazifasi bu organizmning o‘zida hosil bo‘lgan “noma‘qul” tuzilmalarni (autoantigen) aniqlash va organizmni ulardan tozalash qobiliyatini mujassamligidadir. Bu tizimni o‘ta noyob deb ta‘kidlanishi bejiz emas, chunki tashqi muhitda mavjud bo‘lgan va o‘zida organizmga nisbatan begonalik asoratlarini namoyon etgan (antigen, allergen va autoantigenlar) tuzilmalar immunologik tizim orqali aniqlanadi [88].

O‘simlik tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olishda turli uslublar qo‘llanilgan, masalan, Evropa olimlaridan G.Borger tomonidan o‘simliklar tarkibidagi flavonlar va antosianlarni ajratib olishda qizdirish hamda ikki martadan qayda to‘yintirish usuli qo‘llanilgan. Olimlar ishlab chiqqat ekstraksiyaning optimal usuli bo‘yicha etil spirt – suv sistemasidan foydalanib, qizdirish orqali olishni eng maq‘bul usul deb keltirgan[24].

T.Sathishkumar rahbarligi ostidagi Hindiston olimlari tomonidan o'simliklar tarkibidagi flavonoidlar ekstraksiyasining matseratsiya usulini qo'llashni taklif qilganlar [86].

Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% i dorivor o'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda. Mutloq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarning dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabni keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarning dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini, asosan, dorivor o'simliklar o'stirish orqaligina qondirish mumkin.

Biroq Dorivor o'simliklar o'stirish texnologiyasi fani shu vaqtga qadar mustaqil darslik sifatida ishlab chiqilgan emas. Buning ustiga hozirgi vaqtgacha mamlakatimizning ixtisoslashgan, fermer, o'rmon, dehqon va boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jaliklarida dorivor o'simliklarni, ularni o'stirish texnologiyalari mukammal ishlab chiqilmaganligi sababli, ilmiy asoslanmagan holda parvarish qilinmoqda. Shu sababli ham farmatsevtika sanoatini sifatli, mo'l, tannarxi arzon va ekologik sof xom-ashyo bilan ta'minlash katta muammo bo'lib qolaveradi. Bu holat, albatta, dorivor o'simliklar xom-ashyosi yetishtirish bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarni dorivor o'simliklar o'stirish texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislar bilan ta'minlashni taqozo qiladi.

O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dori vositalarining 38-40% ini dorivor o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlari, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid va fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) shu vaqtgacha sintez yo'li bilan olib bo'lmaydi.

Ularni olish manbai hozircha faqat o'simliklar bo'lib qolmoqda.

Dorivor o'simliklarni izlab topish va o'rganish ishi hozir ham keng ko'lamda olib borilmokda. Yangi dorivor o'simliklarni topishda xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor mahsulotlarni o'rganish, o'simliklarni filogenetik qardoshligidan foydalanish bilan bir qatorda ma'lum tuman florasini yalpi kimyoviy analiz qilish katta ahamiyatga ega.

Kasallikni davolash va uning oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Buning uchun shu o'simliklarning kasalliklarni davolash xususiyatga ega biologik faol moddalarga boy bo'lgan qismlaridan-ya'ni, ba'zi o'simliklarning yerosti organlaridan (ildiz, ildizpoya, tuganak yoki piyoz), ba'zilarining esa ustki organlaridan (barg, gul, meva, urug, po'stloq yoki o't o'simliklarning butunlay yer ustki qismi o'ti) foydalaniladi. Ba'zi dori turlari, dorivor preparat va toza moddalar o'simlik hamda hayvonlarning birlamchi ishlash yo'li bilan olingan efir moylari, smolalar, moy va yog'lar, daraxt elimlari, zaharlar (ilon va asalari zaharlari), lanolin, prapolis va boshqalardan ham tayyorlanadi va o'simliklardan olinadi. Bu ko'rsatkich ayrim kasalliklarni-masalan, yurak qon tomirlari kasalliklarini davolash sohasida ishlatiladigan dorivor preparatlarda 80 % ni tashkil qiladi. Kelajak tibbiyotida o'simliklardan olinadigan dorivor preparatlar va dorivor o'simliklarni yanada ko'proq ishlatish rejalashtirilmokda.

Dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan tabiiy preparatlarga tibbiyot sohasida bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bu hol asosan sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste'mol qilish inson va hayvon organizmida turli noxush o'zgarishlarni yuzaga keltirishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra oxirgi vaqtlarda butun dunyoda o'simlik dorivor preparatlariga fitopreparatlarga va dorivor o'simliklarga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa o'z navbatida dorivor o'simliklarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fani ahamiyatining yanada oshishiga va uni yanada chuqur o'rganishga olib keladi.

O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dorivor vositalarning 38-40% ni o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak

glikozidlar, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid va fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) shu vaqtgacha sintez yo'li bilan olib bo'lmadi. Ularni olish manbai hozircha faqat o'simliklar bo'lib qolmoqda.

Hamdo'stlik mamlakatlari juda katta turli geografik hududlardan tashkil topgan. Bu hududlar tropikdan tashqari hamma iqlimli tumanlarni: abadiy muzlik bilan qoplangan baland tog'lar, tundra, tayga o'rmonlari, cho'l, yarim cho'l, sahro hamda nam subtropik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ularning florasi juda boy. U 19000 dan ortiq o'simlik turlaridan tashkil topgan. Shular ichida dorivor o'simliklar ham ko'p. Ammo, hozirgi vaqtda ularni hammasidan ham tibbiyotda kasalliklarni davolashda to'liq foydalanilmayapdi. Farmatsevtika Farmatsevtika sanoati va dorixonalar ehtiyojini qondirish maqsadida har yili katta miqdorda dorivor o'simliklar mahsuloti tayyorlanadi. Mahsulotlar asosan tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklardan yig'iladi. Yil sayin dorivor o'simlik xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talab oshmoqda. Bu esa o'z navbatida tayyorlanadigan xom-ashyo mahsuloti miqdorining oshib borishiga sabab bo'lmoqda.

Dorivor o'simliklarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasida dori turlari tayyorlash hamda dorivor preparatlar va toza moddalar olish uchun ishlatiladigan dorivor o'simliklar va hayvon organlari yoki ulardan birlamchi ishlash yo'li bilan olingan mahsulotlar dorivor mahsulotlar deb ataladi.

Dorivor o'simliklarni tayyorlash, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi fanining asosiy negizi "farmakognoziya" fani bo'lib, uning tibbiyotda ahamiyati katta. Chunki, kimyo fanining, ayniqsa sintetik kimyoning yuqori darajada taraqqiy qilishiga va ko'plab kuchli ta'sir etuvchi dorivor moddalar sintez yo'li bilan olinishiga qaramay tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor preparatlarning 10 ga yaqin o'simliklardan olinadi. Bu ko'rsatkich ayrim kasalliklarni-masalan, yurak qon tomirlari kasalliklarini davolash sohasida ishlatiladigan dorivor preparatlarda 80 % ni tashkil qiladi. Kelajak tibbiyotida o'simliklardan olinadigan dorivor preparatlar va dorivor o'simliklarni yanada ko'proq ishlatish rejalashtirilmokda [49].

Tabiiy dorivor o'simliklardan olinadigan dori vositalariga extiyoj ortishi, dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Astraceae oilasiga mansub Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.), yorqin namunadir. Bu o'simlik tarkibida biologik ahamiyatga ega bo'lgan elementlar (K, Fe, Ca), vitaminlar (A, B₁, B₂, C) shuningdek bioaktiv birikmalar (inulin, sesquiterpen). inson organizmi sog'ligiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan laktonlar, kumarin hosilalari, sikorat kislotasi, fenolik kislotalar) uchraydi. U xoleretik va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, shuningdek ishtahani oshiradi, turli xil fitokimyoviy tarkibi tufayli yallig'lanishga qarshi va antibakterial ta'sirga ega. Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) ko'pincha oshqozon-ichak kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Uning ildi, poyasi, gul va burglari ishlatiladi. [84]

Zubtutum qadim zamonlardan beri keng tarqalgan bo'lib, kasalliklarni davolash uchun keng ko'lamda ishlatilgan: ich qotishi, yo'tal va yaralar kabi. Qadimgi forslik olimlar yozib qoldirgan adabiyotlarda keltirilishicha, *Plantago* major turli shakllarda, masalan, qovurilgan urug'lar, qaynatma, sirop ko'rinishlarda turli kasalliklarda og'riq qoldiruvchi malham, og'iz chayishda, rektal huqna, vaginal sham, ko'z va burun tomchilar sifatida qo'llanilgan. Uning ba'zi an'anaviy xususiyatlari yarani davolovchi, isitmani tushiruvchi, yo'talga qarshi, infeksiyaga qarshi, gemorragik yallig'lanishga qarshi, diuretik, surgi dori va qon to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatishi so'nggi tadqiqotlarda tasdiqlangan. Fitokimyoviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, *Plantago* major tarkibida uchuvchi birikmalar, triterpenoidlar, fenolik kislotalar va flavonoid moddalar mavjud. Zamonaviy farmakologik tadqiqotlar *Plantago* majorining ba'zi an'anaviy qo'llanilishini isbotladi. Shunga qaramay uni ko'proq o'rganish talab etiladi, undan tibbiy dori dormonlar ishlab chiqishda foydalanish mumkun. [64]

Plantaginaceae oilasi *Zubtutum* (*P. major*), odatda katta chinor nomi bilan tanilgan, keng tarqalgan dorivor o'simlik hisoblanadi[9]. *Plantago* major an'anaviy fors tabobatida "Lesan-ol-haml" yoki "Barhang" deb ataladi. [11]. Tadqiqotchilar *Plantago* major qariyb 4000 yil davomida Amerika va Osiyo ayniqsa Evropada mavjud bo'lgani aytishadi [57].

Qadimgi fors olimlari (TPM) olimlari butun dunyo to'rt elementdan (havo, suv, olov, tuproq) iborat deb hisoblashgan. Shunday ko'ra, har bir narsa o'z tuzilishidagi hukmron elementlarga asoslangan eksklyuziv sifatga ega va bu nomdagi eksklyuziv sifat temperament (Midzaj) deb ataladi. [11]. Temperament haqiqatan an'anaviy tibbiyotda mavjud edi, masalan, TPM, yunon, yevropa, arab, hind va xitoy tibbiyotlarida [80]. TPM ma'lumotlariga ko'ra, Plantago major sovuq va quruq temperamentga ega va shunga ko'ra yallig'lanish va qon ketishini kamaytirish uchun ishlatiladi [11]. Plantago major flavonoidlar, polisaxaridlar, terpenoidlar, lipidlar, iridoid glikozidlar va kofein kislotasi hosilalari kabi bir nechta faol birikmalarni o'z ichiga oladi [78]. Qabziyat, yo'tal, yaralar, infeksiya, isitma, qon ketish va yallig'lanish kabi turli kasalliklarni davolash maqsadida foydalaniladi [57]. Plantago majorning farmakologik xususiyatlari, nojo'ya hodisalari, toksikligi va qo'llanilishi o'rganish zamonaviy va an'anaviy fitoterapiyada kelajakdagi klinik sinovlari va plantago majorning farmatsevtik birikmalari tayyorlash asosida foydali yondashuvlar taqdim etilishi mumkin.

Turli kasalliklarni davolash uchun zupturumdan foydalanish ming yillar oldinga borib taqaladi. U haqida eng qadimgi ma'lumot Plantain arab tilida "Materia Medica" yoki "Hashayesh" da bo'lib, uni yunon botaniki "Pedanius Dioscorides" yozgan. Uning kitobi butun dunyo bo'ylab dorivor o'simliklar va farmakopiya bo'yicha entsiklopediyadir [34, 61]. Materia Medicada Dioskoridlar tomonidan chizilgan Dioscorides va Plantago major tasvirlari mavjud. Keyin islom dini paydo bo'lishi bilan islomda Rhazes, Avitsenna, Al-Beruniy kabi buyuk mutafakkirlar va taniqli olimlar tibbiyot maktablari paydo bo'ldi. Ular o'simliklarni tuzilishlarini tanishtirdilar va Zupturum (Plantago. major) kabi har bir o'simlikning xususiyatlarini muhokama qildilar, jumladan: uning temperament, yashash joyi, ko'rsatkichlari, kontrendikatsiyasi, ta'sir qilish muddati, amaradorligi, toksikligi, dozasi, tayyorgarlik turlari, va nojoyi ta'sirlarini [13, 26, 71].

Oddiy sachratqi o'simlikining nomi (Cichorium intybus L.) bir nechta yunon va lotin so'zlaridan kelib chiqan. Cichorium lotincha "maydon" degan ma'noni

anglatadi, intybus esa ikkala tilda ham o'xshash. Yunoncha barglarning morfologiyasiga asosan "kesish" degan ma'noni anglatadi. O'z navbatida, lotincha tubus - "(a) naycha" degan ma'noni anglatadi poyaning tuzilishini tariflagan holatda[83]. Jinsning nomi uning yashash joyining vakili, esa tur nomi o'simlikning o'zini tasvirlaydi [83]. Cichorium nomi aslida yunoncha kichorionning lotinlashtirilishi tomonidan yaratilgan, ko'pincha qadimgi tibbiyot xodimlarining asarlarida uchraydi. U O'rta yer dengizi, Eron, Turkiston hududlarida qadimiy o'simlik sifatida keng tarqalga. Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) uzoq tarixga ega o'simlik hisoblanadi. garchi uning tibbiy qo'llanilishi ayniqsa qiziqarli bo'lsada, uning tarixga ko'ra oldingi davrlarda umumiy qo'llanilishi odamlarda qiziqish uyg'otgan . Qadimgi Rimda, Gretsiyada va Misrda u metabolizm va ovqat hazm qilish yaxshilash uchun ishlatilgan. O'simlikdan yaylov o'simligi bilan bir qatorda sabzavot sifatida ham foydalanilgan [67,83]. Uning tibbiy xususiyatlari haqida ko'plab dalillar mavjud, ya'ni Eresoslik Teofrastdan, Pedanios Dioscorides, Pliniy Elder yoki Avitsennakabiy buyuk mutafakir olimlar Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) preparatlarini ovqat hazm qilish yoki medaning buzilishini davolash uchun ishlatgan. Ibn Sino ham o'g'riqlarni engillashtirish uchun Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) ildizi qaynatmalarini qo'llagan. Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) uzoq yillar davomida tibbiyotda keng ko'llanilib kelayotgan o'simlik turlaridan biri [19]. Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, o'rta asrlarda evropaliklari ham sariqlikni yoki hatto bezgakni davolash uchun Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) foydalanib kelishgan [22,27]. Madaniy Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) foydalanishga ko'ra guruhlariga bo'linadi: [77] "sanoat" yoki "ildiz" Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.), asosan, shimoli-g'arbiy Evropa, Hindiston, Janubiy Afrika va Chili qishloqlarda yetishtiriladi. U asosan inulinni olish yoki o'simlik ildizidan kofe o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladi; [67] "Bryussel" yoki "witloof" sachratqining keng tarqalgan Evropa navi sanoat ishlatiladi; uning kurtaklari quyosh nuri tushmaydigan joyda saqlash

orqali oqartiriladi; [5] sachratqining yangi yoki qaynatilgan barg; [27] “Yaylov” hindibo, Yaylov yo’llari va cho’l yerlar bo’ylab keng tarqalgan [23,63,67].

Ushbu turning paydo bo’lishi Shimoliy va Markaziy Evropa, Sibir, Turkiya, Afg’oniston, Shimoliy va Markaziy Xitoy, Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Efiopiya, Madagaskar, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda rasmiylashtirilgan [23]. Shuning uchun *Cichorium intybus* L. butun Yevroosiyo va Afrikaning bir qismida muhim dorivor o’simlik hisoblanadi. Uzoq vaqtga qaramay uni qo’llash an’anasi Evropa farmakopeyasiga kiritilmagan. Evropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning har qanday farmakopeyasida bu o’simlik dori sifatida ishlab chiqilmagan. Bu o’simlik mahalli tibbiyotda keng miqqiyosda qo’lanib kelingan holos[32,83].

Cichorium intybus L. bir yillik, ikki yillik yoki ko’p yillik o’simliklarni o’z ichiga oluvchi Asteraceae (ilgari: Compositae) oilasiga mansub.[34]. U qishga chidamli va odatda 20 dan 150 sm gacha balandlikga yetadi. U uzun va kuchli, qalin, jigarrang ildiz hosil qiladi. Poyasi va ildizlari garchi vaqti-vaqti bilan qizil halqalarni hosil qilsayam, odatda yashil rangda bo’ladi. *Cichorium intybus* poyasining o’sgani sayin unda bo’g’imlar paydo bo’ladi, bo’g’imlardan shohli poyalar hosil qilishi mumkin. Poyasida kamroq qattiq barglari bo’ladi. Poyasining pastki qismida kalta, qalin tuklari bo’ladi. Kurtaklari qattiq va quruq betartib joylashgan. *C. intybus* ning 10-25 sm uzunlikdagi barglari yashil rangda bo’lib, gul shaklida joylashgan. Ularning shakli nozik ovol, cho’zinchoq, lentasimon, odatda kataksimon yoki tishsimon bo’ladi. Bargalarni tukchalari bargning past qismida, yon tomonida, bargni butun yuzasida yoki umuman bo’lmasliki mumkin. Pastki barglar bandli, yuqori qismi juda keng, yon qismlari uch burchak, uch qismi barg asosiga qaragan bo’ladi. Poyasidagi barglari yashil, cho’zinchoq, nayzasimin, o’q yoki yurak shaklida bo’ladi. Qirralari tishli, tishli barg yuqori qismiga qarab kamayadi. Yuqori barglari qirrali va butun sirt tukli. *C. intybus* L. ning gullarining diametri 2-4 sm, gulari ko’k rangda, yakka yoki to’pgulda joylashgan. *C.intybus* Osiyo, Urol, Shimoliy Afrikada, Yevropaning mo’tadil iqlim zo’nasida, janubiy-g’arbiy qisimlarida yovoyi holda o’sadi. U Avstraliya, Yangi Zerlandiya, Amerika

va boshqa mamalakatlarda ham tarqalgan. Mo'tadil iqlim zo'nalarda ular nafaqat yovoyi o'simlik sifatida, balki nav o'simlik sifatida ham keng tarqalgan.

Streptozototsin qo'zg'atadigan qandli diabet bilan kasallangan kalamushlar yordamida 125 mg / kg tana massasi dozasi bilan butun o'simlik etanolik ekstrakti qo'llanilganda glyukoza, xolesterin va triglitseridlar darajasi o'tkazilgan tadqiqotda sarumning kamayganligini aniqladi. Bundan tashqari, hindibo ekanligi aniqlandi. nazorat guruhi bilan solishtirganda glyukoza-6-fosfataza darajasining pasayishiga olib keldi. Xuddi shunday gipoglikemik ta'sir urug'larning suvli ekstrakti yordamida ham kuzatildi. diabetning erta yoki kech davrida qo'llaniladi; ekstrakti ekanligi kuzatildi davolash qilingan hayvonlarda tana massasining yo'qolishini oldini oladi [20]. Pushparaj va boshqalar. butun hindibo o'simliklarining alkogolli ekstraktlarining streptozototsin bilan qo'zg'atilgan kalamushlarga ta'siri qandli diabet (50 mg/kg) ni tekshirdi. Kuniga bir marta hindibo ekstrakti (125 mg / kg tana vazniga) boqish 14 kun davomida qon zardobidagi glyukoza miqdorini 20% ga, triglitseridlarni 91% ga va umumiy xolesterinni 16% ga kamaytiradi. Qon zardobidagi insulin darajasida o'zgarishlarning yo'qligi bu imkoniyatni istisno qildi hindibo oshqozon osti bezi β -hujayralari tomonidan insulin sekretsiasini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, jigar glyukoza-6-fosfataza (Glc-6-Pase) faolligi sezilarli darajada kamaydi. Jigarda Glc-6-Pase darajasining pasayishi faollik jigar glyukoza ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin, bu esa o'z navbatida qonning hindibo ekstrakti olgan kalamushlarda glyukoza darajasi pasayishiga olib keladi [50]. Sharma va boshqalarni o'rganishidan maqsadi. Edi C. intybusning har ikkala fermentning lipid peroksidlanish faoliyatiga ta'sirini o'rganish va fermentativ bo'lmagan antioksidantlar, yallig'lanish vositachilari, miyokard fermentlari va eksperimental diabetik kardiomyopatiyada (DCM) yurak to'qimalarining gistopatologiyasini o'rganish. DCM streptozototsinni (40 mg/kg) bir martalik intraperitoneal in'ektsiyasi bilan qo'zg'atildi. kalamushlarda yuqori energiya iste'moli bilan. C. intybus (250 va 500 mg / kg) urug'i ekstrakti kuniga bir marta 3 hafta davomida og'iz orqali yuborildi. C. intybus urug'i ekstrakti qon glyukozasini tiklash qobiliyati, aspartat aminotransferaza, laktat dehidrogenaza, superoksid

dismutaza, reaktiv tiobarbiturik kislota darajasining ko'tarilishida muhim ekanligini tasdiqladi. Qon glutation, TNF-a va IL-6 va katalaza moddalar darajasining pasayishi. streptozotsin bilan davolashdan keyin kuzatilgan. Streptozotsin ta'sirida yurak to'qimalarining keng nekrotik o'zgarishlari C.intybusda normal morfologiyaga qadar minimallashtirildi. Tadqiqot C. intybusning ekstrakti sitokinlarni ingibirlash qilish orqali oksidlovchi stress va yallig'lanishga qarshi kardioprotektiv ta'sirini ko'rsatadi.[63]. Kofe va hindibo o'simlikida topilgan xlorogen kislotalar mushaklarda glyukozani qaytarib olishga antidiyabetiklar ta'siri tufayli qodir deb ta'riflangan. Ikkala birikma ham insulin sekretsiasining kuchli induktorlari. Ilgari aytib o'tilgan o'xshash birikma xossalari Sixor kislota bo'lib, u ham insulinga sezgirlikni va dozaga bog'liq glyukoza bardoshlik-induksiya xususiyatlarini oshiradi. Boshqa ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, butun o'simlikning metanolik ekstrakti glyukoza tashilishiga ijobiy ta'sir qiladi, shu bilan birga bir vaqtning o'zida adipogenezni qo'zg'atmaydi. [65]. Chadra va boshqalar. kalamushlarda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, suvli moddalarni yuborish hindibo urug'i ekstrakti sarum glyukoza va triglitserid darajasini sezilarli darajada kamaytiradi [21]. Keyinchalik ushbu muallif tomonidan 2-toifa diabet bilan kasallangan 150 ta bemorda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, C. intybusning urug'li suvi sezilarli darajada ovqat hazm qilish, yallig'lanish, oksidlovchi stress va gipertrigliseridemiya kamaydi [50]

C. intybus immunitet bilan bog'liq kasalliklarda foydalanilganligi uchun an'anaviy tibbiyotda keng qo'llaniladigan dorivor o'simlik. C. intybus immunitet reaksiyalarini modulyatsiya qilish mumkinligini ko'rsatadigan bir qancha dalillar mavjud. Karimi va boshqalar. [51] sichqonchaning dendritik hujayralarini nishonga olish orqali immunitet tizimiga hindibo ildizi etanolik ekstraktining ta'sirini o'rgangan. C.intybus yuqori konsentratsiyalarini allogen T hujayralarining ko'payishini ingibir qildi va past konsentratsiyalarda sitokinlar darajasini shunday o'zgartirdiki, IL-4 kamayadi va IFN- γ ko'tariladi.

Hindibaning uchta alohida faol moddasi laktusinining analizik xususiyatlari, laktukopikrin va 11 β , 13-dihidrolaktusin issiq plastinkaga duchor bo'lgan

sichqonlarda isbotlangan. (laktukopikrinning eng kuchli ekanligini isbotlash) va quyruqni siltash testi. Shunisi e'tiborga loyiqki, 30 mg/kg dozasi bu birikmalarning har birining dumli siqish testida qo'llanilgani ta'sir ko'rsatdi ibuprofenning 60 mg/kg dozasi bilan solishtirish mumkin. Bundan tashqari, laktusin va laktukopikrin ma'lum darajada trankvilizatsiyani ta'minladi, chunki hayvonlarning motor faolligi o'z-o'zidan paydo bo'lishining pasayishi kuzatildi. [83]

So'nggi yillarda C. intybus ekstraktlarining sitotoksikligini o'rganish uning antitumor ekanligini ko'rsatdi [43,52]. Tadqiqotlar shuningdek, metabolit tarkibiy qismlarini, shu jumladan guaianolidlarni aniqladi. 6-metoksiflavon, evdesmanolidlar, germakranolidlar, poliasetilen, sterol, antosiyanin, delfinidin, 3,4-dihidroksifenetil va boshqa yangi birikmalar. Ushbu fitometabolitlarning ko'pchiligi in vitroda ijobiy sitotoksik ta'sir ko'rsatdi va in vivo o'smalarga qarshi ta'sir ko'rsatdi va klinik tadqiqotlarda C. intybus metabolitlarining antitumor dorilar sifatida potentsialini ko'rsatgan. Strukturaviy faoliyat munosabatlari tadqiqotlari ushbu bioaktivliklarni yanada tasdiqladi [43]. C. intybus ekstraktlari ko'krak bezi saratoniga (MCF-7), amelanotik melanoma (C32), prostata saratoni (LNCaP), buyrak adenokarsinomasi (ACHN), leykemiya hujayralari sitotoksik ta'sir ko'rsatadi [42]. Ehrlich ascites carcinoma sichqonlari yordamida o'tkazilgan tadqiqotda ildizning xom etanolik ekstraktini qo'llashda o'smaning rivojlanishini kamaytirish muhimligini isbotladi. Kuniga 700 mg / kg tana massasi Sifatida qorin bo'shlig'iga yuborilganda o'rtacha umr ko'rishning 70% gacha o'sishi kuzatildi. [83]

Hindiba tashqi tomondan teri kasalliklarini davolash uchun foydali bo'lgan kompresslarda ishlatiladi, shu jumladan. dermatit, shilliq qavatlarning yallig'lanish kasalliklari, yaralar, yaralar va travma. Gul infuzioni antiseptik, yallig'lanishga qarshi, namlovchi va oziqlantiruvchi xususiyatlari tufayli yallig'lanishdan tirnash xususiyati beruvchi teri va ko'zlarni davolash uchun juda yaxshi. Shuningdek, u ekzema va yomon davolanadigan yaralarni davolashda yordam beradi, periokulyar qon aylanishini yaxshilaydi, periorbital shishishni va ko'z charchoq alomatlarini engillashtiradi; quruq terini parvarish qilish uchun ham juda yaxshi [76].

C.intybusning dorivor materiallari odatda boshqa o'tlar bilan aralashtirib tayyorlanadi. Rizvi va boshqalar. tadqiqot kalamushlari tomonidan ildiz ekstraktining yallig'lanishga qarshi ta'sirini baholadi. Hindiba ildizlari, karragenan qo'zg'atgan panja shishi usulida panja shishishining dozaga bog'liq sezilarli kamayishini ko'rsatdi. Hindiba ildizlari zardobdagi TNF- α , IL-6 va IL-1 darajasini pasaytirdi. Shuningdek, ular malonilaldegid darajasini sezilarli darajada susaytirdi va panja to'qimalarida CAT va GPx faolligini oshirdi [79]. Osteoartrit (OA) bilan og'rigan bemorlarda hindibo ildizining xususiy bioaktiv ekstraktining xavfsizligi va bardoshlilikini aniqlash uchun platsebo-nazorat ostidagi, ikki marta ko'proq, dozani oshiruvchi sinov o'tkazildi. Tajribali tadqiqot natijalari hindibo ildizining xususiy bioaktiv ekstrakti OA ni davolashda potentsial rolga ega ekanligini ko'rsatdi. Eng yuqori dozada hindibo bilan davolangan faqat bitta bemor salbiy ta'sir tufayli davolanishni to'xtatdi [60].

Cichorium intybus L. katta salohiyatga ega keng tarqalgan o'simlik hisoblanadi. Albatta tibbiy profilaktika va fitoterapiyada kengroq foydalanishga loyiqdir. Alohida qismlar, masalan, barglar yoki gullar, ham yangi, ham quritilgan shaklda, kundalik ratsionga qimmatli qo'shimcha bo'lishi mumkin. Bu C. intybus ekstraktlarining ko'p maqsadli ta'siri farmatsevtika sanoati uchun istiqbolli muqobil manba bo'lishi mumkin. Qizig'i shundaki, SARS-CoV-2 ga qarshi potentsial hindibo bilan o'simliklar orasida edi. Biroq, keyingi tadqiqotlar, shu jumladan in vitro va in vivo tadqiqotlar, hindiboning bu antiviral xususiyatini tasdiqlash uchun zarur.[60]

Dorivor o'simliklarning terapevtik xususiyatlari qadimdan xalq tabobatida keng qo'llanib kelinadi. Misol uchun, Ibn Sino va Dioskoridlarning asarlarida dorivor o'simliklarning ta'siri haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. [34] Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu an'anaviy bilimlarni tasdiqlash yoki rad etish imkonini beradi.

Laboratoriya tajribalari dorivor o'simliklarning hujayra transport jarayonlariga ta'sirini baholashga yordam beradi. Masalan, Cichorium intybus ekstraktining kaltsiy ion kanallariga ta'siri elektrofiziologik usullar yordamida

aniqlangan bo'lib, uning hujayra membranasidagi ion oqimlarini modulyatsiya qilishi kuzatilgan. [89] Bu esa uning yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta'sirini tushuntiradi.

Ma'lumki, barcha tirik organizmlar hujayralarning ichki muhiti tashqi muhitdan membrana orqali ajralib turadi. Shuningdek, hujayra organellalari, kompartmentlari (hujayra ichki qismlari) ham membrana bilan himoyalangan. Membrana so'zi lotincha membrana yupqa parda degan ma'noni anglatadi. Hujayra membranasini qalinligi o'rtacha 5- 10 nm ga teng va u hujayrani tashqi muhitdan belgilaydi, moddalarning tanlab o'tkazilishini ta'minlaydi hamda turli xil tashqi ta'sirlardan hujayrani himoyalaydi.

Hujayralar o'rtasidagi ion almashinuv jarayonlari natriy-kaliy nasosi (Na^+/K^+ -ATPaza), kaltsiy kanallari va proton pompalarining faolligi orqali amalga oshiriladi. [33] ta'kidlashicha, dorivor moddalarning ushbu tizimlarga ta'siri hujayra elektroforetik potentsialining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

Dorivor o'simlik ekstraktlari hujayra membranasining suyuqligi va o'tkazuvchanligiga ta'sir qilishi mumkin. Xususan, flavonoid va polifenol birikmalar fosfolipid qatlam bilan o'zaro ta'sirlashib, membrananing barqarorligini oshirishi yoki o'zgartirishi mumkin. [29]

Biomembranalar oqsil molekulalari, lipidlar, suv va anorganik komponentlardan tashkil topgan. Biomembranalar tarkibiga kiruvchi oqsillar xilma xil bo'lib, ularning molekulyar massasining qiymati o'rtacha 10-240 kD birligida hisoblanadi. Oqsillar membranada lipid molekulalari matriksida joylashish o'rniga ko'ra **integral** va **periferik** oqsillarga guruhiga bo'linadi. Oqsillar gidrofob xususiyatiga ko'ra, alohida yoki lipid molekulasiga birikkan holda uchraydi. Membranaga kam bog'langan noelektrostatik, periferik oqsillar va lipidga bog'langan integral oqsillar fermentativ, modda va ionlar tashilishi, regulyator va struktura kabi funksiyalarni bajardi [50].

Membranada oqsil molekulalari uglevodlar bilan bog'lanib glikoproteinlarni yoki lipidlar bilan birikib, lipoproteinlarni hosil qiladi. Oqsillar hujayra quruq massasining 10-15% ni, lipidlar 25-75 % ni tashkil qiladi.

Membrana lipidlari 14-22 ta uglerod atomlaridan iborat bo'lib, fosfolipidlar, glikolipidlar va steroidlardan tashkil topgan. Fosfolipidlar molekulasi bosh qismi, ya'ni qutblangan gidrofil va gidrofob dum qismlar ko'rinishidagi ikki qismdan tuzilgan bo'ladi. Bosh qismi fosfor kislotasi qoldig'i, gidrofob qismi uglevodorodlar qoldig'idan tuzilgan. Lipid molekulari hujayra membranasida qalinligi 3,5-4,0 nm bo'lib, ikki qavat hosil qilib joylashgan bo'ladi.

Biomembranalarning tuzilishiga oid hozirgi zamon gipotezalarining asosini 1966 yilda J. Lenard va S. Singer tomonidan biomembranalarning tuzilishini tushintirishda yaratilgan suyuq-mozaika modeli qisman tashkil qiladi. Shu bilan birga zamonaviy biofizika fanida biomembranalarning struktura tuzilishida oqsil molekularining joylashish konformatsiyalari haqida to'liq tushintirib beriladi. Biomembranada joylashgan oqsil molekularining ion kanallari hosil qilish mexanizmlari, retseptor oqsil molekulari, lipid molekularining turlari va vazifasi kabi murakkab holatlar ilmiy jihatdan to'liq yoritib berilgan.

Hujayra membranasining qalinligi J. Robertson tomonidan taxminan 75 Å ekanligi aytilgan va ko'pgina tajribalar asosida bu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati 100 Å deb baholangan. Hujayra membranasining kimyoviy tarkibi va tarkibiy qismlarining o'zaro joylashish konformatsiyalari membrana faoliyati xususiyatlariga to'g'ri keladi. Elektron mikroskopda kuzatilganda hujayra membranasini ikkita, qalinlik o'lchami o'rtacha 20 Å ga teng bo'lgan qavatlar va ularning o'rtasida qalinlik o'lchami o'rtacha 35 Å ga teng bo'lgan qavatdan tashkil topganligini ko'rish mumkin [67].

Biomembranalarning xossalari. Biomembranalar tanlab o'tkazuvchanlik, egiluvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, fagotsitoz, energiya hosil qilish, retseptorlik kabi xossalarga ega.

Biomembranalar faol tizim bo'lib, u hujayraning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarini, turli xil moddalarni, jumladan ionlarni tanlab tashqi muhitdan ichkariga kirishi va tashqariga chiqarilishini, gormonlar va boshqa boshqaruvchi molekularning bog'lanishini, fermentlar katalizlaydigan turli rekatsiyalarning kechishini, elektr impulslarning hosil bo'lishi va o'tkazilishini ta'minlab beradi.

Har bir membrana o'ziga xos bo'lgan funksiyani amalga oshiradi. Umuman membranalarining strukturalari ma'lum vazifani bajarish uchun moslashgan bo'ladi.

Membranada tizimlar ikkita asosiy faza holatida uchrashi mumkin:

- 1) qattiq ikki qatlamli kristall holat yoki gel holatida,
- 2) suyuq kristall holatda bo'ladi.

Ikkala holatda ham lipid fazasining ikki qatlamli strukturalari saqlanib qoladi. Membrana harorati ko'tarilganda qattiq fazaning suyuq fazaga nisbati o'zgaradi. Membranani tashkil qilgan fosfolipidlarning yarim miqdori qattiq va ikkinchi yarmi suyuq bo'lgan holatni belgilaydigan harorat **fazali o'tish harorati** deyiladi. Bu harorat lipidlarning uglevodorod zanjiri uzunligi va uning to'yinish darajasiga bog'liq. Lipidlarning uglevodorod zanjirlarining uzunligi oshishi bilan fazali o'tish harorati ham oshadi va to'yinish darajasi kamayishi bilan bu harorat pasayadi.


Fazali o'tishda sodir bo'ladigan o'zgarishlar asosida lipidlarning uglevodorod zanjirlarining fazoviy o'zgarishlari yotadi. Gel suyuq kristall holatdagi fazalararo o'tishda uglevodorod zanjirlari trans holatidan tartibsiz holatiga o'tishi kuzatiladi. Bunda bir lipid molekulasida egallaydigan yuzaning qiymati ko'payadi va uglevodorod qatlamining qalinligi kamayadi. Bunda tashqi qavatlar oqsil molekulalaridan va o'rtada joylashgan qavat ikki qator holatda joylashgan lipid molekulalaridan tashkil topganligi haqida ma'lumotlar aniqlangan.

Membrana tashqi tomonida joylashgan oqsil molekulalari yaxlit holatda emasligiga sababli lipid molekulalari hujayra tashqarisida mavjud bo'lgan gidrofob xususiyatga ega moddalar bilan bevosita ta'sirlashadi. Buning natijasida esa suvda erimaydigan holatdagi moddalar membranadan bemalol lipid molekulalari qavatida erishi orqali o'ta oladi. Hujayra membranasi tashqi tomonida joylashgan oqsil molekulalarining maxsus konformatsiyasidan hosil bo'ladigan ion kanallari orqali turli xil ionlar qat'iy tartibda, maxsus tanlovchanlik xususiyati asosida hujayra ichki muhitiga o'tkaziladi yoki tashqariga chiqarib yuborilishi ro'y beradi. SHu bilan birga membrana tashqi qismida joylashgan oqsil molekulalari membrananing ichki va tashqi qavatlarida joylashgan ferment tizimlari, ion kanallari, biologik faol moddalar bilan tanlovchanlik asosida ta'sirlashadigan retseptor deb ataluvchi

maxsus molekula tuzilmalarini tashkil etadi. Bu tuzilmalar faoliyati asosida hujayra tashqi muhit ta'sirotlarini qabul qiladi.


Ion kanali orqali zardli ionlarning o'tishi elektr toki oqimini vujudga keltiradi. Ion kanali orqali ionlarning tashilishi kimyoviy konsentratsiya gradienti bo'yicha nafaol ko'rinishda, membrana potentsiali qiymatiga bog'liq xolatda va ion kanalining ion o'tkazuvchanlik xususiyatiga bog'liq xolatda kuzatiladi. *Ratch clamp* uslubi yordamida 1980 yilda alohida ion kanali orqali ionning o'tish xususiyatlarini qayd etishgan. Bu uslub juda nozik shisha elektrod yordamida membranada amalga oshuvchi elektr xodisalarini qayd qilishga asoslangan. Bu uslub yordamida alohida ion kanalining ochilishi va yopilishi jarayonini kuzatish mumkin. Ion kanali ochilishi unda konformatsion o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Bu konformatsion o'zgarishlar potentsialga bog'liq xolatda amalga oshsa, ion kanali biofizik xususiyatlariga ko'ra potentsialga bog'liq deb nomlanadi. Ion kanali ochiq holatda bo'lishi *ms* dan bir necha o'n *sek.* gacha davom etadi. Alohida ion kanalida xosil bo'lgan elektr toki qiymati 1 – 100 *picoamper* ni (1 *picoamper* 10^{-12} amperga teng) tashkil qiladi.

nisbatan olinganda) ona qornidagi bolada va uning ikki yoshgacha bo'lgan davriga qadar kuzatiladi. Ikki yoshdan jinsiy yetuklik darajagacha ham uning o'lchovi ancha katta bo'ladi. Jinsiy voyaga yetish davri tugagach, u asta-sekin kichiklasha boshlaydi va deyarli involyusiyaga uchraydi. O'tmishdagi anatamlarga timyan o'simligi bargining shaklini eslatgani uchun ayrisimon bez timotsit deb nomlangan. Odam organizmida ayrisimon bez, embrional davrning ikkinchi oyida uchinchi va qisman to'rtinchi halqum chuntagidan rivoj topa boshlaydi. Bu davrnining oltinchi xaftasida, timotsit epitelial hosilaga aylanib, keyinchalik unda qon tomir va mezenximal elementlarining hosil bo'lishi kuzatiladi. 7-8 haftalar orasida esa dastlabki limfositlar namoyon bo'la boshlaydi. Shunday qilib ushbu bez limfoepitelial a'zolariga aylanadi. Embrional rivojlanishning uchunchi oyga kelib, a'zoda bo'laklar hosil bo'la boshlaydi va shu bilan birga uning tuzilmaga xos shakllanishi yuzaga keladi. Bezning keyingi rivoji uning sig'imi va vaznining oshishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi[39].

Ayrisimon bez yupqa biriktiruvchi kapsula bilan qoplangan, uning ostida bez bo'lakchalari yotadi. Har bir bo'lakcha ikki qatlamdan iborat. Bo'lakchaning periferik, limfositlarga gavjum qismi tashqi pustloq, markaziy, hujairalarga boy bo'lmagan qismi esa miya qatlami deb ataladi. Ayrisimon bezning normal funksiyasi tug'risidagi ma'lumot oxirgi 10 - 15 yillar ichida olingan bo'lib, ular orasida eng asosiylari quyidaglar hisoblanadi: immunologik jihatdan rivojlanishi, tiklanish va ko'maklashish vakolatlari, periferik limfoid tizimlarni boshqarish va boshqalar. Immunologik nuqtai nazardan nigoh tashlansa, timotsitning asosiy vazifasi T -limfosit populyasiyalarini ma'lum bir rivoj darajasiga yetkazish yoki differinsiasiyalash hisoblanadi. Bezning bu vazifasi gumoral omillarni ishlab chiqarish tufayli amalga oshadi. Bu gumoral omillar asosan bezning epitelial hujayralari tomonidan yuzaga keladi. Shunday qilib, timotsit T-limfosit populyasiyalarining ma'lum bir yetuklik darajasiga ko'tarilishida muhim o'rin tutadi. T-hujayralarining o'tmish avlodlari timotsitga qarab ko'chib yurish qobiliyatiga ega, bunda ular a'zoning ta'siri ostida bo'ladi. Timotsit tarkibidan o'rin olgan va dastlabki rivoj bosqichida bo'lgan «chaqaloq» hujayralar o'z tashqi

markerlari (tamg'alari) ga ega bo'lmaydi. Ular markerlik xususiyatini ana shu a'zo ta'siri ostida asta-sekin orttiradi[41].

Timotsitning po'stloq qatlamini tark etgan T-limfositlar bir qancha sinflarga bo'linib ketib, voyaga yetgan T- xelper, T-supressor va T- killer vakolatligini shakllantirib beradigan, o'ziga xos markerlarni namoyon qiladi.

Timotsit hujayralariga dorivor o'simlik ekstraktlarining ta'siri haqida gap ketganda, bu soha immunitet tizimi va saraton kasalligini o'rganish bilan bog'liq. Timotsitlar (T-hujayralar) immunitet tizimining muhim qismi bo'lib, ular infeksiyalar va saraton hujayralariga qarshi kurashishda asosiy rol o'ynaydi. Dorivor o'simlik ekstraktlari esa an'anaviy tibbiyotda immunitetni kuchaytirish va turli kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladi.

T-limfotsitlar bajaradigan fuksiyasiga qarab bir nechta turlarga bo'linadi
Yordamchi T-hujayralar (Th): Boshqa immun hujayralarini faollashtiradi.

Sitotoksik T-hujayralar (Tc): Virus bilan kasallangan hujayralar va saraton hujayralarini yo'q qiladi.

Regulyator T-hujayralar (Treg): Immun javobni nazorat qiladi va otoimmun kasalliklarning oldini oladi.

Dorivor o'simlik ekstraktlari immunitetni kuchaytirish va T-hujayralar faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Immunomodulyator ta'sir: Masalan, Echinacea, Astragalus kabi o'simliklar immunitetni kuchaytiradi.

Antivirus va antikanser ta'sir: Curcumin (zanjabil), Green tea (yashil choy) kabi moddalar T-hujayralar faolligini oshirishi mumkin.

Yallig'lanishga qarshi ta'sir: Ginseng, Ginkgo biloba kabi o'simliklar yallig'lanishni kamaytirib, immunitetni qo'llab-quvvatlaydi.

Ko'plab tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

Echinacea: T-hujayralar va sitokinlar ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Curcumin: Saraton hujayralariga qarshi kurashda T-hujayralar faolligini oshiradi.

Astragalus: Timotsitlar sonini va faolligini oshirishi mumkin.

Dorivor o'simliklardan foydalanishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashish kerak. Ba'zi ekstraktlar dori vositalari bilan o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Immunitet tizimini kuchaytirish uchun muvozanatli ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini saqlash muhimdir.

Flavonoidlarning immunitet tizimiga ijobiy ta'siri bor. Flavonoidlar turlariga qarab timotsit hujayralariga turli hil mexanizmlarda ta'sir ko'rsatadi.

Immunitetni kuchaytirish: Flavonoidlar, masalan, quercetin va katexin, T-hujayralarining faolligini oshirishi va ularning ko'payishini rag'batlantirishi mumkin. Bu esa immunitet tizimining yaxshi ishlashiga yordam beradi. Misol uchun, Quercetin saratonga qarshi kurashda va virusli infektsiyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashda foydali bo'lishi mumkin.

Yallig'lanishga qarshi ta'sir: Flavonoidlar yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega bo'lib, T-hujayralarining yallig'lanishga olib keladigan sitokinlarni ishlab chiqarishini nazorat qiladi. Apigenin flavonoidi T-hujayralarining yallig'lanishga qarshi javobini kamaytirib, surunkali yallig'lanish kasalliklarini yengillashtirishi mumkin.

Antioksidant ta'sir: Flavonoidlar antioksidant sifatida ishlab, T-hujayralarini oksidativ stressdan himoya qiladi. Bu esa hujayralarning yaroqsiz mutatsiyalarga uchrash ehtimolini kamaytiradi. Epikatexin kabi flavonoidlar T-hujayralarining faoliyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Autoimmun kasalliklar: Ba'zi flavonoidlar T-hujayralarining haddan tashqari faolligini bostirib, autoimmun kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Luteolin flavonoidi T-hujayralarining autoimmun reaksiyalarini kamaytirishi mumkin.

Antivirus ta'sir: Flavonoidlar T-hujayralarining virusli infektsiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishi mumkin. Baicalein flavonoidi virusli infektsiyalarga qarshi immunitetni kuchaytirishi ma'lum.

Flavonoidlar timotsit hujayralarining faoliyatini yaxshilash, immunitetni mustahkamlash va yallig'lanishga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Ular tabiiy manbalar orqali osonlik bilan qo'shimcha qilib olinishi mumkin.

Timotsitlarning membranasi transport va retseptor qanallarining biokimyoviy ishlash mexanizmi dori periparatlarining ta'sir mexanizmida ham muhim sanaladi.

Transport qanallari: Timotsitlarning membranasi turli xil ion va molekulalarning transporti uchun maxsus qanallar mavjud. Bu qanallar hujayra ichi va tashqarisi o'rtasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

Na^+/K^+ ATPaza pompasi: Bu pompa hujayra membranasi natriy (Na^+) va kaliy (K^+) ionlarining kontsentratsiyasini tartibga soladi. Har uchta Na^+ ionini hujayradan chiqarib yuborish evaziga ikkita K^+ ionini hujayraga oladi. Bu jarayon ATP (adenozin trifosfat) molekulasi gidroliziga bog'liq bo'lib, hujayra membranasi elektrokimyoviy potensialini saqlab turadi.

Kalsiyum kanallari: Timotsitlarda kalsiyum (Ca^{2+}) kanallari mavjud bo'lib, ular T-limpotsitlarning faollashishi va signal uzatish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Masalan, T-limpotsit retseptori (TCR) faollashganda, kalsiyum kanallari ochilib, hujayra ichiga kalsiyum ionlarining oqimini oshiradi. Bu esa hujayra ichidagi kalsiyum kontsentratsiyasini oshirib, turli signal yo'llarini faollashtiradi.

Retseptor qanallari: Timotsitlarning membranasi turli xil retseptorlar mavjud bo'lib, ular antigenlar, sitokinlar va boshqa signal molekulalarini tanib, hujayraga signal uzatishni boshlaydi.

T-limpotsit retseptori (TCR): TCR timotsitlarning membranasi joylashgan va antigenlarni tanib olish uchun mo'ljallangan retseptor hisoblanadi. TCR antigen bilan bog'langanida, u CD3 kompleksi va boshqa yordamchi molekulalar orqali hujayra ichiga signal uzatadi. Bu signal T-limpotsitning faollashishiga va immun javobni boshlashiga olib keladi.

Sitokin retseptorlari: Timotsitlar turli xil sitokinlar (masalan, interleukinlar) uchun retseptorlarga ega. Bu retseptorlar sitokinlar bilan bog'langanida, hujayra ichida signal yo'llarini faollashtiradi. Masalan, IL-2 retseptori T-limpotsitlarning ko'payishi va differentsiatsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Signal uzatish yo'llari: Timotsitlarda retseptorlar orqali qabul qilingan signal hujayra ichida turli yo'llar orqali uzatiladi. Bu yo'llar hujayraning metabolik faoliyati, gen ekspressiyasi va hujayra siklini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

MAPK yo'li: Mitogen bilan faollashtirilgan protein kinaza (MAPK) yo'li hujayraning o'sishi, differentsiatsiyasi va omon qolishi uchun zarur bo'lgan signal yo'llaridan biridir. TCR faollashganda, MAPK yo'li orqali hujayra ichida turli genlar faollashadi.

PI3K/Akt yo'li: Fosfoinozimid 3-kinaza (PI3K) va Akt protein kinazasi yo'li hujayraning omon qolishi va metabolizmini tartibga soladi. Bu yo'l TCR faollashganda yoki sitokin retseptorlari orqali signal qabul qilinganda faollashadi.

Timotsitlarning membranasida joylashgan transport va retseptor qanallari ularning immunitet tizimidagi muhim funktsiyalarini bajarishda asosiy rol o'ynaydi. Bu qanallar orqali hujayra ichiga va tashqarisiga ionlar va molekulalarning harakati, shuningdek, antigenlar va signal molekulalarini tanib olish va ularga javob berish mexanizmlari amalga oshiriladi. Bu jarayonlar T-limpotsitlarning rivojlanishi, faollashishi va immun javobni shakllantirishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

II BOB. Materiallar va usullar

Tajribalarimizda quyidagi tarkibli eritmalaridan foydalanildi.

1. Normal Ringer eritmasi tarkibi (mM): 135 NaCl, 5 KCl, 10 HEPES, 2 CaCl₂, 1 MgCl₂, 5 glyukoza, (290±2 mosm/kg H₂O, pH-7,4 NaOH yordamida). (1-jadval)
2. H-bufer tarkibi (mM): 5 KCl, 10 HEPES, 2 CaCl₂, 1 MgCl₂, 5 glyukoza, pH-7,4 (40±2 mosm/kg H₂O, pH-7,4 KOH yordamida). (2-jadval)
3. Gipotonik eritmalar (ushbu eritmalar 3-jadvalda keltirilgan nisbatda aralashtirilib tayyorlandi.)
4. Kversiten
5. 80% spirt eritmasi
6. NaOH
7. NaNO₂
8. AlCl₃*6H₂O
9. Geparin

Quyda keltirilgan eritma va moddalar ilmiy ish tajribasi davomida foydalaniladi va tajriba uchun juda muhim sanaladi. Eritmalarni tayyorlashda laboratoriya jihozlarning sanitarik holatiga ya'ni tozaligiga, eritma tarkibidagi moddalarni to'g'ri saqlanganligiga va eng muhimi ularning o'lchash jarayonida tarozining texnik jixatdan aniqligiga etibor berish kerak, Analitik tarozidan foydalanilgani maqsadga muvofiqdir. Eritma tayyorlash tartibi qoidasi buzulsa yoki moddalarni o'lchashda noaniqlikga yo'l qo'yilsa tajribamiz biz kutgan natijani bermasligi mumkin.

Quyidagi eritmalarining tayyorlanish ketma ketligi:

1-jadval

Ringer eritmasining tayyorlash

Ringer eritmasi	MVV	mM/1litr	mM/200ml	g/1litr	g/500ml		MVV	M	g/1litr	g/200ml
NaCl	58,4	135	27	7,884	3,942					
KCl	74,5	5	1	0,3725	0,1863					
Mg ₂ *6H ₂ O	203,3	1	0,2	0,2033	0,1017	1M	203,3	1	203	40,66
CaCl ₂ *6H ₂ O	219	2	0,4	0,438	0,219	1M	219	1	219	43,03
HEPES	238,31	10	2	2,3831	1,1916					
Glukoza	180,2	5	1	0,901	0,4505					
pH ni NaOH orqali 7,4 ga olib keling										

2-jadval

H-bufer eritmasini tayyorlash

H-bufer eritmasi	MVV	mM/1litr	mM/200ml	g/1litr	g/500ml		MVV	M	g/1litr	g/200ml
KCl	74,5	5	1	0,3725	0,1863					
Mg ₂ *6H ₂ O	203,3	1	0,2	0,2033	0,1017	1M	203,3	1	203	40,66
CaCl ₂ *6H ₂ O	219	2	0,4	0,438	0,219	1M	219	1	219	43,03
HEPES	238,31	10	2	2,3831	1,1916					
Glukoza	180,2	5	1	0,901	0,4505					
pH ni NaOH orqali 7,4 ga olib keling										

Tadqiqotlarda foydalanilgan gipotonik eritmalar tarkibi va osmotik bosimi

№	Ringer (ml)	H-bufer (ml)	Osmotik bosim (mOsm/kgH ₂ O)	Osmotik gradient (mOsm/kg H ₂ O)
1	7	0	290	0
2	6	1	254	38
3	5	2	219	76
4	4	3	182	114
5	3	4	147	152
6	2	5	111	190
7	1	6	76	228
8	0	7	40	266

Eritrotsitlar suspenziyasini tayyorlash

Tajribalarda odam qoni umumiy usulda ko'ngillilardan olindi. Toza probirkaga Ringer eritmasi antikoagulyant (geparin, 10 birlik/ml) bilan birga solindi. Qon (5-10 ml) bilak venasidan bir marotabali steril shprits yordamida olindi. Olingan qon 1:10 nisbatda Ringer eritmasi bilan suyultirildi va 3000 aylanish/minut tezligida 10 minut davomida sentrifugalandi. Cho'kma usti suyuqligi pipetka yordamida olib tashlandi. SHu jarayon (antikoagulyantsiz) Ringer eritmasi bilan yana 2 marotaba takrorlandi. Suspenziyadagi eritrotsitlar foizini aniqlash uchun shisha naychaga suspenziya olinib 3000 aylanish/min tezligida 10 minut davomida sentrifuga qilindi. Buning uchun oddiy gematokrit kapillyarlari, yoki 0,1 ml o'lchamli shisha pipetka kapillyardan 10 sm uzunlikda kesilganini ishlatildi. Kapillyarlar oxiri plastilin bilan berkitildi. Gematokrit (G) hujayra hajmi (V_h) bilan umumiy hajm (V_{umum}) ga nisbatini ifodalovchi quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$G = V_h / V_{umum} \times 100\%$$

**Hujayra hajim boshqarilishini yorug'lik o'tkazuvchanligini
registratsiya usuli**

Kalamush timotsitidan timotsitlarni ajratib olish usuli

Tajribalar zotsiz (100-150 gr), vivariyda oddiy parhez usulida boqilgan, 6-8 haftalik oq kalamushlarda olib borildi.

Tadqiqotlarda laboratoriya hayvonlari bilan ishlash ARRIVE (Animal Research: Reporting of *In Vivo* Experiments) deklaratsiyasi va Biofizika va Biokimyo Instituti Bioetika qo'mitasi ko'rsatmalariga qat'iy amal qilindi.

Kalamush dietil efir yordamida hushsizlantirilgach, boshi o'tkir qaychi yordamida olindi, ko'krak qafasi ehtiyotkorlik bilan ochilib, yurak sohasining yuqori qismida joylashgan timotsit ehtiyotlik bilan ajratib olindi va muzda saqlangan normal Ringer eritmasiga solindi. Timotsit qon tomirlardan hamda yog'lardan yaxshilab tozalandi va Petri likopchasiga o'tkazilib, muz ustida bir xil massa hosil bo'lguncha o'tkir pinset bilan maydalandi. Hosil bo'lgan gomogen massa yacheyka o'lchami 100 mkm kattalikdagi neylon to'rdan o'tkazildi. Ushbu suspenziya 5 minut davomida 1000 aylanish/min tezligida sentrifuga qilindi. Supernatant olib tashlanib, ustiga 1 ml Ringer eritmasi solindi va bir xil massa hosil bo'lguncha yaxshilab aralashtirildi (resuspenziya qilindi). Timotsitlarni ajratib olish ishlari xona haroratida o'tkazildi. Hujayralar soni Goryaev kamerasida hisoblandi.

Timotsitlarning yashovchanligini aniqlash

Hujayralar yashovchanligini aniqlash uchun suvda eruvchi neytral bo'yoq – tripan ko'kidan (Sigma-Aldrich, St. Louis, MO, AQSH) foydalanildi. Bu bo'yoq hujayra membranasi orqali o'ta olmaydi va faqatgina o'lgan hujayralarning sitozolini bo'yaydi, chunki o'lgan hujayralar membranasi to'siq vazifasini bajara olmaydi, sog'lom hujayralar esa bo'yalmaydi. Lekin endotsitoz yo'li bilan normal hujayralarda ham ma'lum tezlikda hujayradan tashqari moddalarni o'tishi kuzatiladi, shuning uchun tripan ko'ki bilan bo'yash tezda o'tkazilishi zarur. Ishni bajarishda standart (1,5 ml) eppendorf probirkasiga 10 mkl hujayra suspenziyasi va 10 mkl tripan ko'king Ringerdagi 0,2% li eritmasi solindi. Suspenziya pipetka yordamida yaxshilab aralashtirildi. Keyin hujayrali massa tomchisi tezlik bilan

Goryaev kamerasiga olib o'tildi va hujayra cho'kmaga tushguncha 1 minut ushlab turildi. Keyingi 3 minut ichida 100 ta hujayra sanaldi, ular orasida ko'k rangli (ya'ni membranasi gidrofil tripan ko'k bo'yog'ini o'tkazuvchi) o'lik hujayralar, rangsizlari esa tirik hujayralar. Tajribalarimizda o'lik hujayralar soni 5 %dan oshmadi.

Timotsitlar hajm o'zgarishini yorug'lik o'tkazish usuli yordamida aniqlash

Giposmotik stressda hujayraning osmotik muvozanati buziladi, suv oqimining hujayra ichiga kirishi va uning shishishi yuzaga keladi. Keyin 20-30 daqiqa mobaynida hujayralar siqila boshlaydi va o'zining boshlang'ich hajmini tiklab olishga xarakat qiladi.

Yorug'likni o'tkazish bo'yicha hujayra hajmini registratsiya qilish usuli shunga asoslanganki, hujayralar suspenziyasi o'zidan o'tuvchi yorug'likni sochib yuboradi, natijada chiquvchi yorug'lik intensivligi (I) kiruvchi yorug'lik intensivligidan (I_0) kamayadi, va bu kamayish hujayra hajmiga proporsional. Hujayralar suspenziyasining yorug'lik o'tkazuvchanligi (T) quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$T = (I / I_0) \times 100\%$$

Tajribalarda shisha kyuvetaga 900 mkl eritma (izotonik Ringer normal eritmasi, gipotonik (147 mOsm/kgH₂O) Ringer eritmasi, HMDG-Ringer eritmasi yoki sinalayotgan moddalarning eritmalari) solindi. Shisha kyuveta mis yacheykasi orqali U-3 (Germaniya) suvli termostati bilan bog'langan. Harorat barqarorlashgandan so'ng, hujayra suspenziyasidan (100 mln/ml) 100 mkl yacheykaga solindi va 15 minut davomida tajriba olib borildi. Timotsitlar hajmi o'zgarishi MKMF-1 (Rossiya) mikrokolorimetri yordamida qayd qilindi. Yutilish maksimumi 610 nm bo'lgan yorug'lik filtri qo'llanildi. Chiquvchi signal U5-11 operatsion kuchaytirgichi (Rossiya) yordamida kuchaytirildi va GO Link USB sensor interfeysi (Vernier, Beaverton, OR) da raqamlashtirilib, kompyuterga uzatildi hamda 100 Gs da Logger Lite dasturiy ta'minoti (Vernier, Beaverton, OR) yordamida yozib borildi.

Regulyator hajm kichrayishi (RVD) quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$RVD = ((T_{max} - T_{15}) / (T_{max} - T_0)) \times 100\%$$

Bu erda T_0 va T_{maks} – yorug‘lik o‘tkazuvchanlikni boshlang‘ich va maksimal ko‘rsatkichi, T_{15} – gipotonik stressdan 15 daqiqa o‘tgandan so‘ng o‘lchangan yorug‘lik o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichi.

Hujayra hajmining to‘liq tiklanishi $RVD=100\%$ ga to‘g‘ri keladi. Hajm boshqarilishining to‘liq to‘xtatilishida $RVD=0\%$. Nazorat sharoitlarda RVD hujayra turiga, osmotik gradient kattaligiga, harorat va boshqa eksperimental sharoitga bog‘liq holda 60-90% ko‘rsatkichga ega.

Natijalarning matematik va statistik tahlili

Gipoosmotik stress sharoitida timotsitlar hujayra hajm boshqarilishiga moddalarning dozaga bog‘liq ta’siri quyidagi Xill tenglamasi asosida approksimatsiya qilindi:

$$RVD = RVD_{min} + (RVD_{max} - RVD_{min}) / (1 + (C/C_{50})^h)$$

Bu erda RVD_{min} va RVD_{max} – hujayra hajm kichrayishining minimal va maksimal ko‘rsatkichlari (%), C – moddaning konsentratsiyasi (mkM), C_{50} – moddaning yarim-maksimal konsentratsiyasi (mkM), h – Xill koeffitsienti.

Modda molekulalarning poralardan o‘tishi Staverman “aks etish” koeffitsientidan foydalangan holda ta’riflandi va bizning eksperimental sharoitimizda ushbu parametr quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\sigma = 1 - (dV/dt)_i / (dV/dt)_o$$

Bu erda σ – bu Staverman “aks etish” koeffitsienti; $(dV/dt)_i$ va $(dV/dt)_o$ – noelektrolit modda qo‘shilgan holdagi va noelektrolitsiz nazorat sharoitdagi timotsitlarining hajm o‘zgarish tezligi. Noelektrolitlar membranadan o‘tmaganda $\sigma=1$ ga teng bo‘ladi (ya’ni to‘liq “aks” ettiriladi), membranadan to‘siqsiz o‘tgan holda esa $\sigma=0$ ga teng bo‘ladi (ya’ni membrana uni “aks” etolmaydi).

Gemoliz darajasining osmotik muhit bosimiga bog‘liqligi Bolsman tenglamasi yordamida approksimatsiya qilindi:

$$G = G_{min} + (G_{max} - G_{min}) / (1 + \exp[(P - P_{50})/k])$$

Bu erda: G_{min} va G_{max} – minimal va maksimal gemoliz darajasi miqdori (%),

P – muhitning osmotik bosimi (mOsm/kg N_2O), P_{50} – 50% gemolizga olib keluvchi muhitning osmotik bosimi (mOsm/kg N_2O), k – egrilik koeffitsienti.

Gemoliz darajasining modda konsentratsiyasiga bog‘liqligi quyidagi Xill tenglamasi yordamida approksimatsiya qilindi:

$$G = G_{min} + (G_{max} - G_{min}) / (1 + (C/C_{50})^h)$$

Bu erda: G_{min} va G_{max} – minimal va maksimal gemoliz darajasi miqdori (%), C – modda konsentratsiyasi (mkM), C_{50} – 50% gemolizga olib keluvchi moddaning konsentratsiyasi (mkM), h – Xill koeffitsienti.

Tajriba natijalarini matematik va statistik tahlili va egri chiziqlarni chizish OriginPro 5-8 (OriginLab Northampton, MA, AQSH) kompyuter dasturi yordamida amalga oshirildi. Tajribalar takroriyliги n harfi bilan ifodalandi hamda olingan o‘rtacha miqdor ($X_{o'rt}$) va uning standart xatosi (SE) ko‘rsatildi.

Standart hato quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$SE = \{ [\sum (X_i - X_{o'rt})^2] / (n(n-1)) \}^{1/2}$$

Nazorat va tajribada olingan o‘rtacha qiymatlar orasidagi farq Styudent t-testi bo‘yicha hisoblandi va qiymatlar farqining statistik ishonchliligi $R < 0,05$ darajasida ifodalandi va (*) bilan belgilandi.

Gemoliz metodi

Izoosmotik sharoitda moddalarning gemolitik faolligini aniqlash uchun mikrotitrator platasining 11 ta o‘yiqlariga 200 mkl Ringer eritmasi solindi. Birinchi o‘yiq nazorat uchun qoldirildi. 2-chi o‘yiqqa aniqlanayotgan moddadan maksimal konsentratsiyada 200 mkl miqdorda solindi va yaxshilab pipetka yordamida aralashtirildi (10 martadan kam bo‘lmagan holatda). Keyin 2-chi o‘yiqdan 200 mkl eritmadan olib, 3-o‘yiqqa solindi, aralashtirildi va shu tarzda qolgan o‘yiq'larga titrlandi. Buning natijasi o‘laroq, hamma o‘yiq'lardagi aniqlanayotgan modda konsentratsiyasi qo‘shni eritma konsentratsiyasidan 2 martaga farq qildi. Yana bir o‘yiqqa 1%li Triton X-100 detergenti erimasidan hujayrani to‘liq gemolizlash uchun solindi. Tajriba yana 2 qatorda takrorlandi. Hamma o‘yiq'larga 200 mkl 8%li eritrotsitlar suspenziyasi solindi va aralashtirildi. Plata oyna bilan yopilib termostatda 37°S da 60 minut davomida inkubatsiya qilindi va har 10 minutda

aralashtirilib turildi. O'yiqlardagi suyuqliklarni toza 10 ml li probirkalarga olindi va har biriga 1 ml dan Ringer solinib, 3000 aylanish/min tezligida 10 minut davomida sentrifuga qilindi. Cho'kma usti suyuqligining optik zichligini 540 nm da o'lchandi. Gemoliz foizi quyidagi formuladan keltirib chiqarildi:

$$\text{Gemoliz} = (OZ / OZ_{100}) \times 100\%$$

Bu erda, OZ – tajriba guruhidagi cho'kma ustidagi suyuqlikning optik zichligi qiymati, OZ_{100} – triton X-100 eritmasi solingan nazorat guruhidagi cho'kma usti suyuqligi optik zichligi qiymatini ifodalaydi.

Olib borilgan tajribalarda o'rtacha spontan gemoliz 1-2% dan oshmadi.

Odam eritrotsitlarining osmotik rezistentligini aniqlash

Odam eritrotsit hujayralarining osmotik rezistentligini aniqlashda nazorat uchun mikrotitrator platasi yacheykalariga 360 mkl osmotik bosimi har xil bo'lgan eritma va 40 mkl 40% li eritrotsit suspenziyasi qo'shildi. Tajriba uchun mikrotitrator platasi yacheykalariga 360 mkl osmotik bosimi har xil bo'lgan eritma solinib, unga blokatorlarning ko'rsatilgan konsentratsiyalari tegishli miqdorda solindi. Uning ustiga blokator qo'shilgan, 30 minut xona haroratida inkubatsiya qilingan 40% li eritrotsitlar suspenziyasidan 40 mkl solinib aralashtirildi va mikrotitrator usti shisha bilan yopilib, 37°S da 60 min inkubatsiya qilindi. So'ngra lunkadagi suspenziyalar ichida 1 ml Ringer eritmasi bo'lgan toza probirkalarga o'tkazildi va 10 minut davomida 3000 aylanish/minutda sentrifugalandi. So'ng supernatandagi gemoglobinning optik zichligi 540 nm to'lqin uzunligida aniqlandi.

Osmotik stress sharoitida gemoliz darajasi formula yordamida aniqlandi.

$$\text{Gemoliz} = (OZ / OZ_{100}) \times 100\%$$

Odam eritrotsitlarining kolloid-osmotik lizisga chidamliligini aniqlash

Qon hujayralarining nistatin yoki essin moddalari ta'siridagi kolloid-osmotik lizisga chidamliligini o'rganish uchun 8% li eritrotsit suspenziyasiga blokatorlar tegishli miqdorda qo'shildi va 30 minut xona haroratida inkubatsiya qilindi. Mikrotitrator platasi o'yiqchalariga 200 mkl dan Ringer eritmasining o'zi (nazorat) va tarkibida turli blokatorlarning tegishli konsentratsiyalari qo'shilgan Ringer

eritmasidan quyildi. Birinchi lunkalarga nistatin yoki essinning DMSOdagi 100 mM li konsentrlangan eritmasidan tegishli miqdorda solib, yaxshilab aralashtirildi va titrlandi. Bunda har bir lunkadagi modda miqdori keyingisidan ikki barobarga farq qiladi. Yana bir nechta lunkaga detergent triton X-100 ning 1% li eritmasidan 100% li gemoliz hosil qilish uchun quyildi. So'ngra barcha o'yiqchalarga toza va blokator qo'shib inkubatsiya qilingan 8%-li eritrotsit suspenziyasidan 200 mkl dan quyildi va 37°S da 60 minut davomida termostatda inkubatsiya qilindi. So'ngra lunkadagi suspenziyalar ichida 1 ml Ringer eritmasi bo'lgan toza probirkalarga o'tkazildi va 10 minut davomida 3000 aylanish/minutda sentrifugalandi. So'ngra supernatantdagi gemoglobin miqdori 540 nm to'lqin uzunligida aniqlandi.

Nistatin yoki essin ta'siridagi kolloid-osmotik stress sharoitidagi odam eritrotsit hujayralarining gemoliz darajasi formula yordamida aniqlandi.

$$\textbf{Gemoliz} = (\textbf{OZ} / \textbf{OZ}_{100}) \times 100\%$$

O'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olishda turli uslublar qo'llanilgan, masalan, Evropa olimlaridan G.Borger tomonidan o'simliklar tarkibidagi flavonlar va antosianlarni agratib olishda qizdirish hamda ikki martadan qayda to'yintirish usuli qo'llanilgan. Olimlar ishlab chiqqat ekstraksiyaning optimal usuli bo'yicha etil spirt – suv sistemasidan foydalanib, qizdirish orqali olishni eng maq'bul usul deb keltirgan[24].

T.Sathishkumar rahbarligi ostidagi Hindiston olimlari tomonidan o'simliklar tarkibidagi flavonoidlar ekstraksiyasining matseratsiya usulini qo'llashni taklif qilganlar[86] .

Yana qizdirishni 400 C da olib borish hamda to'yintirirish (matseratsiya) ni esa O'simlik tarkibidagi biologik faol moddalarni samarali ajratib olishda biz o'simlik namunasini 400 C gacha qizdirildi hamda matseratsiya usulini esa vacuum sharoitida olib borildi. Chunki, ushbu uslubning afzalligi past haroratda BFM ni ajratish orqali, ularning parchalanib ketishi oldi olinadi. Aynan, yoqori haroratga qizdirib turib ajratishni o'rniga biz, vacuum sharoitida 400 C ga qizdirishga almashtirirdik. Bu esa, termolabil biologik faol organik moddalarni

saqlab qolgan holda samarali ajratib olishga erishildi. Buning uchun TN-300 vakuumli ekstraktordan foydalanildi. Quyida ushbu ekstraktor sur'ati keltirilgan: vakuum sharoitida o'tkizishni ishlab chiqildi.

III BOB. NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI.

Zubtutum (plantago major) o'simligidan ekstrakt ajratib olish

Zubtutum(Plantago major) - zubtutumdoshlar oilasiga mansub 1-2 va ko'p yillik o'tlar turkumlarini o'z ichiga oladigan 260 ta tur o'simliklar kiradi. O'zbekistonda 6 ta turi uchraydi shundan 4 tasi dorivor o'simlik sifatida foydalaniladi. Barglari ildiz bo'g'zida to'p bo'lib joylashgan, bandli, keng tuxumsimon yoki keng ellepsimon nashtarsimon va tasmasimon. Gullari poya va shoxlari uchida oddiy boshqoq hosil qiladi. Mevasi ikki yoki ko'p urug'li. Bargi va urug'i tarkibida C va K vitamin, karotin, shilimshiq oshlovchi va boshqa moddalar uchraydi. Barglaridan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini, yaralarni davolashda, urug'ining shilimshiq eritmasi esa kuchsiz surgi sifatida ishlatiladi.

Zubtutumning kuz faslida yetilgan boshqoqlari terib olinadi va qurutiladi. Yaxshi qurugan o'simlik qisimlari maydalagich yordamida kukun holiga kelgunga qadar maydalanadi.

Quruq kukundan analitik tarozi yordamida 0,5 g massada o'lchab, hajmi 50 ml bo'lgan dumoloq qo'lbaga solamiz, so'ngra 10ml 80% li etanol spirt quyub taxminan 1 daqiqa kolbani silkitish orqali aralashtiriladi. Ultratovushli suv hammom ish holatiga keltirilib, ichiga disterlangan suv solinadi va suvga kolba qulay joylashtiriladi, 30 daqiqa davomida ultratovushli hammomga qo'yiladi, har 10 daqiqadan qo'lba qo'lga olinib chayqab turiladi. Qog'oz filtirdan foydalanib eritmamizni filtirlab olamiz va yangi prabilkaga solib, o'simlik nomi va tayyorlangan sanani yozib qo'yamiz.

Ekstraktning quruq massa miqdorini aniqlash

Issiqa bardosh beradigan idish olamiz va uni analitik tarozida 3 marotaba o'lchaymiz

Idish massasi:

1. 13 113,6 mg

2. 13 113,6 mg

3. 13 113,6 mg

O'rtacha massasi: 13 113,6 mg

Ekstraktimizdan 2 ml idishga solib 100 °C haroratda termostatga 1 soat mobaynida qo'yiladi va keyin idish yana 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 124 mg
2. 13 125 mg
3. 13 123,1 mg

O'rtacha massasi: 13 124,86 mg

Idishdagi quruq massa yana yaqshiroq qurush uchun yana 1 soatga 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va qaytadan 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 124 mg
2. 13 124,4 mg
3. 13 124,6 mg

O'rtacha massa 13 124,33 mg

Eritmaning quruq massasini toppish uchun oxirgi o'rtacha qiymatdan idish massasini ayirib tashlaymiz va 2 ga bo'lish orqali 1 ml dagi quruq massa miqdorini aniqlaymiz:

$$13\,124,33 - 13\,113,6 = 10,73\text{ mg}$$

$$10,73 : 2 = 5,37\text{ mg}$$

$$1\text{ ml} = 5,37\text{ mg quruq massa}$$

Zira (*Bunium persicum*) dan ekstrakt tayyorlash

Zira (*Bunium persicum*) - ziradoshlar oilasiga mansub ko'p yillik xushbo'y ziravor o'simlik. Bo'yi 40 - 60 sm. Poyasining yarmidan yuqorisi shoxlangan. Ildizi tugunakli. Tupbarglari uzun bandli, poyadagilari bandsiz. Bargi ipsimon bo'laklarga bo'lingan. Gullari oq, mayda, har bir soyabonchada 20 - 30 tadan. Iyunda gullaydi, urug'i iyulda pishadi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo adirlarida, tog' yon bag'irlarida ko'p o'sadi. Urug'i mayda, cho'ziq, qoramtir jigarrang, sirti taram-taram, juda xushbo'y. Tarkibida 2,753,0% efir moyi bor. O'rta Osiyo xalqlari go'sht tuzlashda, qazi va boshqa ovkatlar tayyorlashda kadimdan keng foydalanib keladi. Xalq tabobatida me'da kasalliklarini davolashda, siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi.[7]

Zira (*Bunium persicum*) o'simlikidan ekstrakt tayyorlash uchun biz uni urug'larini olamiz va uni maydalagichda maydalab kukun holiga keltiramiz. Kukunidan 500 mg analitik tarozida o'lchab olamiz va tag qismi dumoloq qo'lbaga solib ustidan 10 ml 80% spirt quyamiz, 30 daqiqa ultira tovushli suv hamomida qo'yamiz. 30 daqiqadan keyin uni filtr qog'ozdan o'tkazib olingan ekstraktni probilkaga solamiz va og'zini yopamiz va ekstrakt nomi va sanasini yozamiz.

Zira (*Bunium persicum*) dan tayyorlangan ekstraktning quruq massa miqdorini aniqlash.

Analitik tarozi yordamida oldin idish massasini 3 marotaba o'lchab olamiz:

1. Idish massasi: 9721,3 mg

2. Idish massasi: 9721,3 mg

3. Idish massasi: 9721,3 mg

O'rtacha: 9721,3 mg

Idishga 2 ml Zira (*Bunium persicum*) ekstraktidan solib 1 soat 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 9 733,2 mg

2. 9 734,3 mg

3. 9 735,2 mg

O'rtacha: 9 734,2 mg

Idish yana bir soatga 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 9 732,6 mg

2. 9 733,5 mg

3. 9 734,0 mg

O'rtacha : 9 733,4 mg

Ekstraktning quruq massasi:

$9733,4 - 9721,3 = 12,1 \text{ mg}$

$12,1 : 2 = 6,05 \text{ mg/ml}$

Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) ning barg va poya qisimlaridan ekstrakt tayyorlash

Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) - murakkabguldoshlarga mansub ko'p yillik betona o't. Poyasi shoxlanadi, serbarg, bargi 30 - 130 sm, pastkiismi oq tukli. Barglari ketma-ket joylashgan. Gullari havorang, barg qo'ltiqlarida kalta gulbandda tup-tup bo'lib, poya uchida esa yakka savatchasimon to'pgulga yig'ilgan. Ildizi o'q ildiz, tuproqqa 1,5 m chuqurgacha kiradi. Oddiy sachratqi ildizida 20% gacha inulin bor (Yevropa mamlakatlarida dorivor ekin sifatida ekiladi). Mart—mayda o'sa boshlaydi, iyul—oktabrgacha gullaydi va mevalaydi. Urug'idan ko'payadi. Asosan, sug'oriladigan ekinlar orasida (bedazorlarda juda ko'p) uchraydi. Shuningdek, tashlandiq yerlar, yo'l, dala, ariq yoqalari, bog'larda o'sadi. Zararkunandalarga makon. Xalq tabobatida oftob urganda va sachrama toshmalarni davolashda poyasi kaynatmasi va kulidan foydalaniladi.

Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) o'simlik terib olinadi va bargi va poyasi alohida qilib qurutiladi. Yaxshilab qurutilgan o'simlik maydalagichda maydalab kukun holiga keltiramiz. Barg va poyasining kukunidan 500 mg analitik tarozida o'lchab olamiz va tag qismi dumoloq qo'lbarga solinib ustidan 10 ml 80% spirt solamiz, 30 daqiqa ultira tovushli suv hamomida qo'yamiz. 30 daqiqadan keyin uni filtr qog'ozdan o'tkazib olingan ekstraktni probilkaga solamiz va og'zini yopamiz va ekstrakt nomi va sanasini yozamiz.

Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) ning barg va poya qisimlaridan olingan ekstraktlarning quruq massa miqdorini aniqlash

Barg va poya ekstraktlari uchun alohida idishlar olinadi va analitik tarozida o'lchab olinadi.

Barg ekstrakti uchun idish massasini 3 marotaba o'lchab olamiz:

1. Idish massasi: 13 113 mg
2. Idish massasi: 13 113 mg
3. Idish massasi: 13 113 mg

O'rtacha : 13 113 mg

Idishga 2 ml Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) barg ekstraktidan solib 1 soat 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 130,1 mg

2. 13 130,5 mg

3. 13 130,7 mg

O'rtacha : 13 130,4 mg

Idish yana bir soatga 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 127,5 mg

2. 13 128,9 mg

3. 13 129,7 mg

O'rtacha : 13 128,7 mg

Ekstraktni quruq massasi:

$13\,128,7 - 13\,113 = 15,7\text{ mg}$

$15,7 : 2 = 7,85\text{ mg/ml}$

Poyasi ekstrakti uchun idish massasini 3 marotaba o'lchab olamiz:

1. Idish massasi: 13 113 mg

2. Idish massasi: 13 113 mg

3. Idish massasi: 13 113 mg

O'rtacha : 13 113 mg

Idishga 2 ml Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) poya ekstraktidan solib 1 soat 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 123,6 mg

2. 13 123,3 mkg

3. 13 122,9 mg

O'rtacha : 13 123,3 mg

Idish yana bir soatga 100 °C haroratda termostatga qo'yiladi va analitik tarozida 3 marotaba o'lchanadi.

1. 13 121,7 mg

2. 13 122,7 mg

3. 13 122,5 mg

O'rtacha : 13 122,1 mg

Ekstraktni quruq massasi:

$$13\,122,1 - 13\,113 = 9,1 \text{ mg}$$

$$9,1 : 2 = 4,55 \text{ mg/ml}$$

4-jadval

Zubtutum (plantago major) boshqoq ekstrakti	Zira (Bunium persicum) urug‘ ekstrakti	Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) ning barg ekstrakti	Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) ning poya ekstrakti
1 ml = 5,37 mg/ml	1 ml = 6,05 mg/ml	1 ml = 7,85 mg/ml	1 ml = 4,55 mg/ml

3.2. Ekstraktlarni umumiy flavonoidlarini aniqlash

Zubtutum (plantago major) o‘simlikining boshqoq ekstraktlarini flavonoidga nisbatan sifat reaksiya o‘tkazish.

Sifat reaksiya uchun 11 ta probilka olamiz:

5 tasi Zubtutum (plantago major) o‘simlikining boshqoq ekstrakti;

3 tasi Kversitenli

3 tasi Suv

- Barcha probilkaga 400 mkl dan disterlangan suv solinadi;
 - 5 ta probilkaga 100mkl dan Zubtutum (plantago major) o‘simlikining boshqoq ekstraktidan solinadi;
 - 3 ta probilkaga kversiten moddasidan 100 mkl dan solinadi;
 - 3 tasiga H₂O 100mkl dan solinadi;
 - Har bir probilkaga NaNO₂ ni 5 % eritmasidan 30 mkl dan solinib 5 daqiqa kutiladi;
 - Har bir probilkaga AlCl₃ dan 30 mkl solinib 6 daqiqa kutiladi.
 - Barcha probilkalarga NaOH 1M eritmasidan 200 mkl dan solinadi va undan keyin har bir probilkaga 240 mkl dan disterlangan suv solinib 15 daqiqa kutiladi.
- Mikrokalarametr yordamida probilkadagi eritmalar 515 nm yorug‘lik to‘lqin uzunligida o‘tkazilib, natijalar tahlil qilinadi (5-jadval).

Zubturm (plantago major) o'simlikining boshq ekstrakti					O'rtacha
1-probilka	2-probilka	3-probilka	4-probilka	5-probilka	
0.74	0.63	0.55	0.51	0.8	0.646
Kversiten					
1-probilka	2-probilka	3-probilka			
0.25	0.3	0.24			0.263
H ₂ O					
1-probilka	2-probilka	3-probilka			
0	0	0			0

$$C_x = C_{(kversiten)} * (A_x / A_{kversitenga})$$

$$C_x = 1 * \frac{0,646}{0,263} = 2,456$$

1 ml Zubturm (plantago) o'simlikining boshq ekstrakti tarkibida 2,46 mg/ml flavonoid mavjud.

Zira (Bunium persicum) o'simlikining urug' ekstraktlarini flavonoidga nisbatan sifat reaksiya o'tkazish.

Sifat reaksiya uchun 11 ta probilka olamiz:

5 tasi Zira (Bunium persicum) o'simlikining urug' ekstrakti;

3 tasi Kversitenli

3 tasi Suv

- Barcha probilkaga 400 mkl dan disterlangan suv solinadi;
- 5 ta probilkaga 100mkl dan Zira(Bunium persicum) o'simlikining urug' ekstraktidan solinadi;
- 3 ta probilkaga kversiten moddasidan 100 mkl dan solinadi;
- 3 tasiga H₂O 100mkl dan solinadi;
- Har bir probilkaga NaNO₂ ni 5 % eritmasidan 30 mkl dan solinib 5 daqiqa kutiladi;

- Har bir probilka AlCl_3 dan 30 mkl solinib 6 daqiqa kutiladi.
 - Barcha probilkalarga NaOH 1M eritmasidan 200 mkl dan solinadi va undan keyin har bir probilka 240 mkl dan disterlangan suv solinib 15 daqiqa kutiladi.
- Mikrokalarametr yordamida probilkadagi eritmalar 515 nm yorug'lik to'lqin uzunligida o'tkazilib, natijalar tahlil qilinadi (6-jadval).

6-jadval

Zira (Bunium persicum) o‘simlikining urug‘ ekstrakti					O‘rtacha
1-probilka	2-probilka	3-probilka	4-probilka	5-probilka	
0.5	0.5	0.46	0.49	0.48	0.486
Kversiten					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0.41		0.42		0.29	0.373
H ₂ O					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0		0		0	0

$$C_x = C_{(kversiten)} * (A_x / A_{kversitenga})$$

$$C_x = 1 * \frac{0,486}{0,373} = 1,3$$

1 ml **Zira(*Bunium persicum*)** o'simlikining urug' ekstrakti tarkibida 1,3 mg/ml flavonoid mavjud.

Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) o'simlikining barg ekstraktlarini flavonoidga nisbatan sifat reaksiya o'tkazish.

Sifat reaksiya uchun 11 ta probilka olamiz:

5 tasi Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) o'simlikining barg ekstrakti;

3 tasi Kversitenli

3 tasi Suv

- Barcha probilka 400 mkl dan disterlangan suv solinadi;

- 5 ta probilkaga 100mkl dan Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.) o'simlikining barg ekstraktidan solinadi;
 - 3 ta probilkaga kversiten moddasidan 100 mkl dan solinadi;
 - 3 tasiga H₂O 100mkl dan solinadi;
 - Har bir probilkaga NaNO₂ ni 5 % eritmasidan 30 mkl dan solinib 5 daqiqa kutiladi;
 - Har bir probilkaga AlCl₃ dan 30 mkl solinib 6 daqiqa kutiladi.
 - Barcha probilkalarga NaOH 1M eritmasidan 200 mkl dan solinadi va undan keyin har bir probilkaga 240 mkl dan disterlangan suv solinib 15 daqiqa kutiladi.
- Mikrokalarametr yordamida probilkadagi eritmalar 515 nm yorug'lik to'lqin uzunligida o'tkazilib, natijalar tahlil qilinadi (7-jadval)

7-jadval

Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o‘simlikining barg ekstrakti					O‘rtacha
1-probilka	2-probilka	3-probilka	4-probilka	5-probilka	
0.87	0.87	0.72	0.82	0.82	0.82
Kversiten					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0.29		0.3		0.27	0.29
H ₂ O					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0		0		0	0

$$C_x = C_{(kversiten)} * (A_x / A_{kversitenga})$$

$$C_x = 1 * \frac{0,82}{0,29} = 2,827$$

1 ml **Oddiy sachratqi (*Cichorium intybus* L.)** o'simlikini barg ekstrakti tarkibida 2,827 mg/ml flavonoid mavjud.

**Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o‘simlikining poyasi ekstraktlarini
flavonoidga nisbatan sifat reaksiya o‘tkazish.**

Sifat reaksiya uchun 11 ta probilka olamiz:

5 tasi Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o‘simlikining poyasi ekstrakti;

3 tasi Kversitenli

3 tasi Suv

- Barcha probilkaga 400 mkl dan disterlangan suv solinadi;
 - 5 ta probilkaga 100mkl dan Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o‘simlikining poyasi ekstraktidan solinadi;
 - 3 ta probilkaga kversiten moddasidan 100 mkl dan solinadi;
 - 3 tasiga H₂O 100mkl dan solinadi;
 - Har bir probilkaga NaNO₂ ni 5 % eritmasidan 30 mkl dan solinib 5 daqiqa kutiladi;
 - Har bir probilkaga AlCl₃ dan 30 mkl solinib 6 daqiqa kutiladi.
 - Barcha probilkalarga NaOH 1M eritmasidan 200 mkl dan solinadi va undan keyin har bir probilkaga 240 mkl dan disterlangan suv solinib 15 daqiqa kutiladi.
- Mikrokalarametr yordamida probilkadagi eritmalar 515 nm yorug‘lik to‘lqin uzunligida o‘tkazilib, natijalar tahlil qilinadi (8-jadval).

8-jadval

Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o‘simlikining poya ekstrakti					O‘rtacha
1-probilka	2-probilka	3-probilka	4-probilka	5-probilka	
0.43	0.46	0.42	0.38	0.42	0.422
Kversiten					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0.24		0.22		0.27	0.243
H ₂ O					
1-probilka		2-probilka		3-probilka	
0		0		0	0

$$C_x = C_{(kversiten)} * (A_x / A_{kversitenga})$$

$$C_x = 1 * \frac{0,422}{0,243} = 1,736$$

1 ml Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) o'simlikini poyasi ekstrakti tarkibida 1,736 mg/ml flavonoid mavjud.

9-jadval

Zubtutum (plantago major) boshqo ekstrakti	Zira (Bunium persicum) urug' ekstrakti	Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) ning barg ekstrakti	Oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) ning poya ekstrakti
1 ml = 2,46 mg/ml	1 ml = 1,3 mg/ml	1 ml = 2,827 mg/ml	1 ml = 1,736 mg/ml

3.3. Umumiy ekstarktlarning odam qizil qon hujayralariga ta'sirini aniqlash

Zubtutum (plantago major)o'simlikning boshqo ekstraktning odam qizil qon hujayralariga ta'sirini o'rganish.

Mikrotitrlarini tajribani boshlashdan oldin spirtida keyin esa distrlangan suv yordamida yaxshilab yuviladi va ish holatiga keltiriladi.

Qon olish:


1. 5 ml ringer eritmasiga 10 mkl geparin solamiz
2. 5 ml qoni tomirdan olib renger va geparin eritmasiga solinadi.
3. Qon tarkibidagi qizil qon tanachalarini ajratib olish uchun qon sentrafugada 3 bosqichda yuviladi. Birinchi 3000 aylanish tezlikda 10 minutga qo'yiladi.
4. Plazma qismi olib tashlanadi ustiga yana 10 ml ga yetgungacha ringer eritmasi solinib yana 10 daqiqa 3000 aylanish tezlikda sentrafugaga qo'yiladi.
5. Prabilkani usti qismi olib tashlanib tagidagi cho'kmani 10 ml bo'lginga qadar ringer eritmasi solinadi va uchinchi marotaba yuvush uchun 3000 aylanish tezlikda

10 daqiqaga sentrafugaga qo'yiladi. Uchunchi marotab yuvulgandan keyin probilkani ustki qismini to'kib tashlangandan keyin probilka tagida qizil qon tanachalar erotiratsitlar qoladi. Uni 8 % bo'lgunga qadar renger eritmasida suyultiriladi va xona haroratida 30 daqiqa qoldiriladi.

